

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVASIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

**MAVZU: QASHQADARYO VOHASIDA MA'DANIY EKOLOGIK VA
GASTRANOMIK TURIZMNING RIVOJLANISHI MAVZUSIDAGI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

G.A. Egamberdiyeva

t.f.f.d., (PhD)

Bajardi:

E.Eshboyeva

Tarix fakulteti Tarix yo'nalishi
kunduzgi bo'lim 4 kurs talabasi

Toshkent – 2024

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
IBOB.QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNING SHAKILLANISHI.....	7
1.1. Qashqadaryo vohasida turizm rivojlanish tarixi.....	7
1.2. Qashqadaryo vohasida tarixiy madaniy meros obyektlarining turizmda tutgan o'rni.....	14
II BOB. Qashqadaryo viloyatida turizmning yangi yo'nalishlari va rivojlanishi.....	22
2.1. Qashqadaryo vohasida turizmning madaniy, ekologik, gastronomik turizmni o'ziga xos xususiyatlari.....	22
2.2. Qashqadaryo vohasida turizm rivojlantirishning asosiy muammolari.....	32
2.3. Mustaqillik davrida Qashqadaryo vohasida turizm sohasi bo'yicha olib borilgan islohatlar.....	36
Xulosa.....	49
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati.....	51
Ilovalar.....	56

KIRISH

Bitiruv malakaviy mavzusining asoslanishi va dolzarbliги. Jahonda Bugungi kunda turizm sohasi ko‘plab mamlakatlar iqtisodining asosiy tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Shu jumladan O‘zbekiston ham turizmning markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Qadimdan sayyoohlarni jalb etuvchi, Xitoy va Yevropa davlatlarini bir-biriga bog‘lab turuvchi Buyuk Ipak yo‘lining o‘tganligi ham mamlakatimizda turizmning qanchalik boy tarixga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu yo‘lda katta miqdordagi me’moriy obidalar va tarixiy davrga ega bo‘lgan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo‘qon va Termiz kabi shaharlar joylashgan. Mazkur shaharlarda har yili minglab turistlarning tashrif buyurishi fikrimizning isbotidir.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab o‘z tarixini chuqur o‘rganish va uni yanada keng isloh qilish yo‘lidan bosqichma-bosqich bormoqda. Shu jahhada yurtimizning tarixi bilan chambarchars bog‘liq bo‘lgan turizm sohasi qaytadan tiklanib, ushbu sohaga bo‘lgan e’tibor kuchaytirildi hamda hozirgi kunga qadar tub islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. O‘zbekiston juda katta turistik salohiyatga ega davlat hisoblanadi. Yurtimizga xorijiy sayyoohlarni jalb etish, turistik xizmatharning xilma- xillagini oshirish maqsadida yangi marshrutlar joriy qilinmoqda. Bugungi kunda mahalliy turistik faollar jahonning turli mamlakatlari: London, Berlin, Madrid, Milan, Tokio, Shanxay, Seul, Moskvada tashkil etilayotgan yarmarkalarda faol ishtirok etishmoqda. Dunyoning yetakchi mamlakatlari turoperatorlari bilan o‘zaro hamkorlik shartnomalari imzolanib, respublikamizga keluvchi sayyoohlар oqimini ko‘paytirishga hissalarini qo‘shmoqdalar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek¹: «Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir».

¹O‘zbekiston Respublikasip Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojatnomasi://Xalq so‘zi gazetasi, 2017 yil 29 dekabr. №250(Ўзбекистон 6952). –B.1

Bitiruv malakaviy ishning davriy chegarasi. Ishining davriy chegarasi etib, mustaqillik yillaridagi (1991-2023) ya‘ni madaniy ekologok va gastronomik turizmning rivojlanish davri etib belgilandi.

Bitiruv malakaviy ishning ob’ekti va predmeti O’zbekistonning janubiy hududi bo’lgan Qashqadaryo vohasida zamonaviy turizmni rivojlantirish etib olingan va Qashqadaryo vohasidagi gastronomik va ekologik turizimning tabiat va jamiyat orasidagi o‘zaro bog’liqligi tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi. Qashqadaryo vohasidagi madaniy, ekalogik va gastronomik turizmning shakllanishi va rivojlanishi tarixini o‘rganish hamda ularning aholi ma’naviy hayotida tutgan o‘rnini ochib berishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonda turizm faoliyati bo‘yicha davlat siyosati va uning natijasini yoritib berish;

Qashqadaryo vohasida madaniy meros ob’ektalarini o‘rganish va tarixini bayon etish;

Qashqadaryo vohasida turizmning rivojlanish jarayoni tarixini bayon etish;

Qashqadaryo vohasida sayyohlik sohasini rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;

Qashqadaryo viloyatida gastronomik turizmni rivojlanish istiqbollarini ochib berish;

Qashqadaryo viloyatida ekologik turizmni rivojlantirish va uning natijasini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.

Bugungi kunda respublikamizda turizmga oid ko’plab meyoriy hujjatlar qabul qilinganligi, bu borada Qashqadaryo viloyatida alohida dasturlar ishlab chiqilganligi va bular davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, tarixiy madaniy, meros ob’ektlarni saqlash masalalari, respublika turizmining rivojlanishida qashqadaryo viloyati o‘rni katta ekanligi dallilandi;

- Qashqadaryo vohasida gastronomik va ekologik turizmi rivojlanishi uchun boshqa viloyatlardan farqli o‘larоq, etnografik qishloqlar mavjudligi, ular mahalliy va xorijiy turistlarni jalb etadigan o‘ziga xos hususiyatlari aniqlandi;
- Qashqadaryo vohasida turizmni taraqqiy ettirishning Respublikaning yo’nalishi hisoblangan-tog’turizmi,ziyorat turizmi,safar turizmi,gastronomik turizm,ekoturizm,qishloq turizmi,etnoturizmning rivojlanish imkoniyatlarining mamlakat ravnaqidagi ulkan ahamiyati asoslangan;
- Qashqadaryoda mavjud muammolar;turistik infratuzilma va servis darajasining cheklanganligi muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmalarning nomukammalligi, qulay sayyohlik axborot ta'minoti (navigatsiya va axborot markazlari) mavjud emasligi, malakali kadrlarning tanqisligi, qimmat tariflar va kadrlar yetishmasligi,yo’llarning yomonligi haqidagi muammolar aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi (tahlili).

Mustaqillik yillarda Qashqadaryo viloyatidagi turizm sohasi bo‘yicha quydagi keltirilgan olimlar tadqiqot ishlari olib borganlar². Ushbu asarlar mualliflari O‘zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilgan ishlarga kam va qisqacha fikrlar bildirib o‘tishgan. Shu sababdan ham mustaqillik yillarda O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida turizm sohasini rivojlantirish jarayonining ahamiyatini o‘rganib taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir.

² Abdumalikov R. Xoldorov T. Turizm: Oliy o‘quv yurti talabalari uchun qo‘llanma. 2-nashr. 2005. -B.345; Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarda. Toshkent, 2002; Allaberganov A.A. Turizm industriyasи. -T.: “Talqin”, 2004. -B.110; Aliyeva M.T. «Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti» darslik, Toshkent: TDIU. 2009-yil, 146 bet; Axmedov X.I. Allaberganov A.A. Turizm faoliyatini tashkil etish. T.: 2004.B.170; Eshtayev A.A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. Monografiya. -T.: “Fan”, 2011; Gadoyev K., Berdiyeva S. Jahongashta sayyoh olimlar.-T.: “O‘zbekiston”, 2012; Kamilova F.K., Taisheva I.M., Sayfutdinov Sh.S. «Turizm industriyasи». O‘quv qo‘llanma. Toshkent. TDIU, 2007-yil. 192 bet; Komilova F.K «Mukammal turizm g‘oyasi». «Iqtisodiyot va ta’lim» № 2, 2003-yil. 98 bet; Komilova F.K. «Turizm sohasining rivojlanish istiqbollari».«Iqtisodiyot va ta’lim» № 1, 2004-yil. 68 bet; Mamatqulov X.M. Turizm va servisga oid izohli lug‘at. Samarqand: SamISI, 2010; Mirzayev M.A. Turizm asoslari. Ma’ruzalar matni. T., 2005. -B.265; Nazarova G. Komilova F. “O‘zbekistonda turizm imkoniyatlarini kengaytirish”. O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. Jurnal. 2000-yil. 49 bet; -B.140; Nig’monov A. Shomurotova N. Ekoturizm asoslari.T.: “Turon”, 2007. -B.234; Qudratov G.X., Tuxliyev I.S. Turizm iqtisodiyoti. Samarqand, 2007. -B.313; Saidov A.F. O‘zbekistonda turizm: istiqbol va muammolari, -T.: «Mehnat», 1992. -B.211; Saidov A. F. «Turizm tinchlik va farovonlik timsoli» Toshkent, 2007-yil. 245 bet; Tuxliyev I.S. Turizm asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: “SamISI”, 2010. -B.234; O‘ktam Xo‘jayorov. Betakror Qashqadaryoning turizm istiqbollari // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil; Xodiyev B.Y. va boshqalar. O‘zbekiston iqtisodiyoti mustaqillik yillarda. -T.: “Iqtisodiyot”, 2007. -B.200; Zokir Tadjixodjayev, Abror Jo‘rayev, Halim Hamroyev. Turizm sohasiga yetuk kadrlar tayyorlash. // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil.

XXI asrning boshlaridan hududlarini o‘rganishning yangi bosqichi boshlandi. Bulardan O‘zbekistondagi yangi turizm ekoturizmni o’rgangan olimlar; Abdullayev S.I. , Usmonova R. , Badalov O’.B. , Jumayev X.X., Bozorova S., Yarashev Q., Yusupov B., Ochilov S., Xasanov J., Qurbonova I.Zyu, Sadullayeva I.K. Qashqadaryoda turizmning yo’nalishlaridan biri bo’lgan ekoturizm rivojlantirishning ayrim masalalari va geografik muommalari va imkoniyatlari yoritib bergen. O‘zbekistonda janubiy viloyatlarda turizm rivojlanishi bo‘yicha A.J.Eraliyev D.Norqulova, S.Ruziyev, S.N.Djurayevalar³ kabi tadqiqodchilar⁴ o’z ishlarida bayon etishgan.

Bitiruv malakaviy ishinining tarkibiy tuzilishi. Qashqadaryo vohasida ma’daniy ekologik va gastronomik turizmning rivojlanishi bilan bog’liq zamonaviy turizmni rivojlantirish jarayonlari mavzusidagi ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 6 paragraf, 62 bet, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro’yxati hamda ilovalar qismidan iborat.

Mazkur bitiruv malakavi ishi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tarix fakulteti qoshidagi AL- 662205481 sonli "Qashqadaryo vohasi tarixiy va madaniy yodgorliklari, ekoturizmiga oid ziyyaratgohlarning" i-turism" platformasini ishlab chiqish" mavzusidagi 2024-yil 3-yanvardan 31-dekabrgacha mo‘ljallangan amaliy loyiha doirasida bajarildi.

³ Jurayeva S.N. O‘zbekistoning janubiy hududidagi ziyyaratgohlar tarixi va ularning mahalliy aholi hayotida tutgan o’rnin;tarix fanlari doktori(DSK)dissertatsiyasi avtoreferati.-Toshkent,2021.–B.249

⁴ Eralov.A.J.O‘zbekistoning janubiy viloyatlarida turizmning rivojlanish tarixi;tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PHD)dissertatsiyasi.-Qarshi,2022.– B.150

I BOB. QASHQADARYO VILOYATIDA TURIZMNING SHAKILLANISHI

VA RIVOJLANISHI

1.1 Qashqadaryo vohasida turizm rivojlanish tarixi

Qashqadaryo mintaqasi ob-havosi ekologik jihatdan eng toza bo‘lgan Qashqadaryo vohasida joylashgan eng sara manzillardan biridir. Qashqadaryo nomi bir necha ma’nolarni anglatadi, jumladan, “qumda yo‘qolayotgan daryo”, shaffof va toza daryo” kabilar. Toza ob-havo, chiroyli tabiat bilan birga hudud qadimiy shahar va arxitektura yodgorliklari bilan boydir⁵.

Respublika turizm rivojida ham Qashqadaryo zaminini o‘zining boy tarixi, qadimiy osori-atiqalari, o‘tmish yodgorliklari bilan muhim o‘rin tutadi.⁶ Viloyatda bugungi kunda 1311 madaniy meros ob’ekti ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 1041 tasi arxeologiya, 200 tasi arxitektura, 43 tasi haykal va 27 tasi diqqatga sazovor joylardir. Kitob, Shahrisabz, Yakkabog‘, Dehqonobod, Qamashi, G‘uzor va Qarshi tumanlarida bu kabi milliy merosimiz namunalari juda ko‘p. Shahrisabz, Kitob, Yakkabog‘, Dehqonobod tumanidagi ajoyib sharsharalar, yashil vodiylar, Qamashi, Qarshi, G‘uzor tumanidagi muqaddas qadamjolar, Nishon, Mirishkor va Muborakdagi obod bo‘layotgan cho‘l-u biyobonlar, qum barxanlari, saksovulzorlar, ajdodlarimizning buyuk va betakror madaniyati haqida so‘zlovchi ziyyaratgohlar, sardobalar xorijlik sayyoohlarni maftun etadi.

Qashqadaryo viloyat sayyoqlik va ekskursiya byurosining qachon tashkil etilganligi haqida hujjatlarda ko‘rsatilmagan.

Sayyoqlik byurosiga 1993 yildan 1995 yilgacha “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyat mintaqaviy bo‘linmasi, 2003 yildan to hozirgacha qadar “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyati Sayyoqlik va ekskursiya byurosi deb yuritib kelinmoqda. “O‘zbekturizm” MK Kengashining 2003 yil 25 fevraldagি qaroriga asosan qayta tashkil etilgan. “O‘zbekturizm”

⁵ Bugun.uz sayti ma’lumotlari.,,O‘zbekiston bahorgi turizm uchun tavsiya etiladigan maskanlari’’, 29.03.2022 <https://bugun.uz/2022/03/29/ozbekistonning-bahorgi-turizm-uchun-tavsiya-etiladigan-maskanlari-foto/>

⁶O‘zbekiston Milliy axborot agentligi davlat rasmiy axborot manbasi va mamlakatdagi yetakchi axborot agentligidir., 03.03.2021 https://uza.uz/uz/posts/sohibqiron-amir-temur-bilan-bogliq-taragay-qishlogi-togli-turizm-maskaniga-aylanadi_245976

Sayyohlik va ekskursiya byurosining asosiy vazifasi viloyatdagi barcha sayyohlik va turizmni rivojlantirish rahbarlik qilishdir.

1994-yil davomida 1993-yil mobaynida bajarilgan ishlarga nisbatan mintaqaviy bo‘linma tomonidan axoliga sayr va sayohatlar xizmat ko‘rsatish ishlari bir qancha yaxshilandi. Amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinganda xizmat ko‘rsatish 6369,9 ming so‘mni yoki belgilangan yillik xizmat ko‘rsatish rejasi 191,7 foizga bajarilgan, yoki viloyatda katta yoshdagi har bir kishiga 6,5 so‘mdan to‘g‘ri keldi.

Bajarilgan ishlar yuzasidan keltirilgan foyda esa 1175,3 ming so‘mni tashkil etdi. Rentabellik darajasi esa 21,2 foizni tashkil etdi⁷.

Mintaqaviy bo‘linmaga qarashli 105 o‘rinli “SHAXRIZABZ” 117 o‘rinli “TONG” mehmonxonalar mavjud bo‘lib bu ikkala mehmonxonalar ham 1994-yilgi belgilangan xizmat ko‘rsatish rejalarini ortig‘i bilan bajardilar⁸.

Viloyatda ko‘plab ijobiy ishlar qilinganiga qaramasdan sohada bir qancha kamchiliklar kuzatildi. 1994-yil bajarilgan ishlarning yakunlari bo‘yicha bo‘linma tizimidagi “Xamroh” jamoasi, hamda Koson sayr va sayohatlar byurosi, Shahrisabz restoranlari belgilangan rejalarini bajara olmadilar⁹ Buning sabablari to‘liq o‘rganib chiqildi. Ish davomida bu tashkilotlar sayyoohlarni yo‘llanmalar orqali shaharlar bo‘ylab sayohatlarga yuborish borasidagi ishlar bilan yetarlicha shug‘ullangan bo‘lsalarda, boshqa shaharlardagi sayohat firmalari va tashkilotlar bilan shartnomalar tuzib, ishlashga kam e’tibor bergenlar¹⁰.

Mintaqaviy bo‘linma tizimidagi Chiroqchi sayr va sayohatlar byurosi belgilangan rejalarini bajarmasdan kelganligi chuqur taxlil qilindi, natija shuni ko‘rsatadiki byuroda ish yaxshi tashkil qilinmagan, 1994-yilning 9 oyida bajarilgan ishlar ko‘rsatgichlari 1993-yilning 9 oyi mobaynida bajarilgan ishlar ko‘rsatgichlariga nisbatan pasayib ketganliklarini hisobga olib byuro 1994 yil oktabr oyidan tugatilib, mintaqaviy bo‘linmaning tumandagi vakillariga aylantirildi¹¹.

⁷ Qashqadaryo viloyati davlat arxivi 975-fond, 1-ro‘yxat, 15-yig‘majild, 1- varaq.

⁸ Qashqadaryo viloyati davlat arxivi 975-fond, 1-ro‘yxat, 15-yig‘majild, 2- varaq.

⁹ Qashqadaryo viloyati davlat arxivi 975-fond, 1-ro‘yxat, 15-yig‘majild, 2- varaq.

¹⁰ Qashqadaryo viloyati davlat arxivi 975-fond, 1-ro‘yxat, 15-yig‘majild, 2- varaq.

¹¹ Qashqadaryo viloyati davlat arxivi 975-fond, 1-ro‘yxat, 15-yig‘majild, 2- varaq.

1995-yil yanvar oyida bo‘lib o‘tgan boshqaruv yig‘ilishida 1994 yilning yakuni bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar to‘lig‘icha muhokama qilindi va yuqoridagi belgilangan rejalarни bajara olmagan tashkilot rahbarlariga nisbatan chora ko‘rildi¹².

Shunday qilib Qashqadaryo viloyatida 1991-yilda 28.3 mingta¹³ sayyohma xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 1995-yilda 1.7 mingtaga¹⁴ tushdi, 1999-yilda esa 41.2 mingtaga¹⁵ yetdi.

2011-yilda viloyatda 19 ta turistik tashkilotlar va mehmonxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda. (2004 yilda viloyatdagi 4 turistik tashkilot va mehmonxonalar faoliyat ko‘rsatgan). Jumladan Viloyat Sayyohmilik va ekskursiyalar byurosi, “Kitob Sayyohm” firmasi, “Nasaf-Travel” kompaniyasi, «Tur end Trevel Shaxrisabz» MCHJ, “Afsona – AMB” MCHJ, “Jayxun” mehmonxona kompleksi, “Tinchlik tuyg‘usi” SICHF, “Sarbon LTD” MCHJ «Real komfort», «Sarbon LTD», «Koson Darvozasi» MCHJ, “Nazira” SICHFga karashli “Grand Lyuks” mexmonxonasi, “Gissarneftgaz” KK MCHJ, “Ark Kompyuter servis” MCHJ, “Agromashmatvneshservis” MCHJ, “Nasaf Oqshomi” MCHJ, “Yoshlik” XF, «Agroavtoxizmat» MCHJga qarashli «Sokin Plaza» mehmonxonasi, “Nasaf Medio Star” XF kabilar¹⁶.

Viloyat bo‘yicha ko‘rsatilgan turistik va mehmonxona xizmatlarining ko‘rsatkichi o‘sib bordi. Bu ko‘rsatgich 2004 yilda 124205,9 ming so‘m, 2005-yilda 189903,4 ming so‘m va 2006-yida 236929,0 ming so‘m, 2007 yilda 511717,7 ming so‘m, 2008-yilda 903626,9 ming so‘m, 2009-yilda 1185532,5 ming so‘m, 2010-yilda 1610716,2 ming so‘m 2011-yilda 2025636,1 ming so‘mni tashkil etadi¹⁷.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 9-dekabrdagi 01-14/1-299-sonli “O‘zbekturizm” Milliy kompaniyasi boshqaruvining turizm sohasini va eksport xizmati hajmini rivojlantirishdagi o‘rni va roli to‘g‘risida”gi majlis bayoni asosida ko‘pgina ishlar amalga oshirildi. Jumladan, Qashqadaryo

¹² Qashqadaryo viloyati davlat arxivi 975-fond, 1-ro‘yxat, 15-yig‘majild, 2- varaq.

¹³ O‘zMA. 2776-fond, 1-ro‘yxat, 553- yig‘majild, 12-varaq.

¹⁴ O‘zMA. 377-fond, 1-ro‘yxat, 131- yig‘majild, 21-varaq.

¹⁵ O‘zMA. 377-fond, 1-ro‘yxat, 261- yig‘majild, 37-varaq.

¹⁶ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari. 2020-yil dekabr.

¹⁷ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari. 2020-yil dekabr.

viloyatida 2011-2012 yillar mobaynida turizm sohasini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha manzilli chora-tadbirlar Dasturi qabul qilingan bo'lib, unga asosan turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalari amalga oshirish ko'zda tutildi. Dastur asosida viloyatdagi ahamiyatga molik tarixiy obidalarni rekonstruksiya qilish, 11 ta zamonaviy mehmonxonalar qurilishi, yo'l infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro yarmarkalarda ishtirok etish hamda xodimlar malakasani oshirish kabi dolzarb masalalar bosqichma-bosqich amalga oshirib borildi¹⁸.

Keyingi yillarda viloyat bo'yicha ko'rsatilgan turistik va mehmonxona xizmatlarining ko'rsatkichlari ham o'sib bordi. 2011-yilning 3-choragida sayoxatchilarga pullik xizmat ko'rsatish xajmi 322158,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilning 3-choragida 2223785.8 ming so'mni tashkil etdi. Sayoxatchilarga pullik xizmat ko'rsatish hajmi 2011-yilning shu davriga nisbatan 690.2 %ni tashkil etadi¹⁹.

Shuningdek, 2012-yil 3-choragi mobaynida jami 15.6 ming kishiga turistik xizmat ko'rsatildi, Shundan, 1271 nafar chet ellik sayohatchilar hamda 524 nafar MDH mamlakatlaridan qabul qilingan. 1428 nafar mahalliy aholi sayohatga olib borildi. 12352 nafar O'zbekiston fuqarolariga mehmonxona va ekskursiya xizmati ko'rsatildi.

2012-yil 3-chorak davomida chet el va MDH mamlakatlari fuqarolariga 138.8 ming AKSH dollari miqdorida eksport xizmati ko'rsatildi.

Dastlabki ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, o'tgan yili yanvar-noyabr oylarida sayohatchilarga pulli xizmat ko'rsatishda xizmatlar hajmi 3,646 mln so'mni tashkil qilgan. Bu vaqt mobaynida jami 33807 kishiga turistik xizmat ko'rsatildi, ularning 1985 nafari chet ellik sayohatchilardir. Shuningdek, mahalliy aholi vakillari turistik xizmatlardan tobora ko'proq bahramand bo'layotganini ham qayd etish joiz. Xususan, 2013-yilning yanvar-noyabr oylarida 31819 nafar mahalliy aholiga sayyohlik va mehmonxona xizmatlari ko'rsatildi. Umuman shu vaqt davomida

¹⁸ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari. 2020-yil dekabr.

¹⁹ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari. 2020-yil dekabr.

xorijlik sayyoohlarga 162,6 ming AQSH dollari miqdorida eksport xizmatlari ko'rsatildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2013-yil 1-noyabr kuni "2013-2015-yillarda Qashqadaryo viloyatining turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 294-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorga asosan, 2013-2015-yillarda Qashqadaryo viloyatining turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari viloyatning turizm sohasini rivojlantirish dasturi, viloyyatdagi tarixiy-madaniy obidalarni qayta tiklash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, yangi mehmonxona, restoran va boshqa turizm infratuzilmasini qurish va mavjudlarini ta'mirlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar, hamda dasturga kiritilgan barcha tadbirlar va loyihalarni moliyalashtirish tasdiqlandi²⁰.

Mazkur qarorga asosan rejorashtirilgan 167 ta tadbirlar va loyihalarni amalga oshirish uchun 108,9 mln dollar miqdorida investitsiyalarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan bo'lib 48,7 mln dollar-korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari, 6,0 mln dollar-xorijiy investitsiyalar, 2 mln dollar-grant mablag'lari va 15,0 mln dollar-budget mablag'lari (davlat budgetidan-14,2 mln dollar va mahalliy budgetdan-859 ming dollar) hisobidan amalga oshirilishi ko'zda tutildi²¹.

2013-2015-yillarda Qashqadaryo viloyatining turizm sohasini rivojlantirish dasturiga kiritilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida quyidagilarga erishildi:

Qashqadaryo viloyatining 43 ta tarixiy-madaniy obyektlari qayta tiklanadi va holati yaxshilandi;

24 ta yangi mehmonxona qurish va 5 ta mavjudlarini qayta ta'mirlash orqali mehmonxona xo'jaligi 1,5 barobarga ortadi va bir kunda 1500 kishiga mehmonxona xizmatlari ko'rsatildi;

Turistik xizmatlar 1,5 barobarga oshadi va uning hajmi 2015-yilga borib 4,5 mlrd so'mni tashkil etdi;

²⁰ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari. 2021-yil iyul.

²¹ Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari. 2021-yil iyul.

Viloyatning eksport salohiyati oshadi, eksport hajmi 2012-yilning ko'rsatkichiga nisbatan 1,4 martaga ortdi²².

Turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2013-yil noyabr oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida Xorazm, Surxondaryo, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida turizm sohasini rivojlantirish dasturlari qabul qilinishi natijasida viloyatda turizm salohiyatini yanada oshirish, mintaqaning noyob tarixiy-madaniy merosidan samarali foydalanish, me'morchilikning tarixiy arxitektura ansambilari va yodgorliklarini holatini yaxshilash, sayyoohlar uchun mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish obyektlarini qurish, zamonaviy sayyoohlik marshrutlarini shakllantirish, viloyatning tabiiy salohiyatidan samarali foydalanish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish, turistlarga xizmat ko'rsatish turlarini ko'paytirish, istirohat bog'lari, bouling-klublar va ko'ngilochar obyektlar qurish kabi kompleks masalalarni qamrab olgan bo'lib, viloyatda turizmni rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilmoqda²³.

Qashqadaryo viloyatining ikkinchi qadimiy Shahrisabz shahri to'g'risida 2014-yil 20-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qabul qilingan dasturiga asosan Shahrisabzda me'moriy ta'mirlash va rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish belgilangan.

Dasturga asosan shaharning tarixiy qismini saqlagan holda zamonaviy qurilish ishlarini amalga oshirish, yo'l-transport infrastrukturasini yaxshilashga 2014-2015-yillarda 560,3 mlrd so'm mablag' ajratish, yo'l va avtobusbekatlari qurishi uchun 10,5 mlrd so'm, muxandislik-kommunikatsiya ishlariga 117,5 mlrd so'm, shaharning me'moriy reja asosida ko'rinishi uchun 97,5 mlrd so'm, tarixiy obidalarni holatini yaxshilashga 14,3 mlrd so'm ajratish belgilangan. Jumladan, Oqsaroy (XIV asr), Darus-Saodat (XV-XIX asrlar), Chubin (XIX asr), Chorsu (XIV asr) yodgorligi va boshqalar. Shuningdek shaharda (uch va to'rt yulduzli) 40 o'ringa mo'ljallangan ikkita mehmonxona qurish (2,6 mlrd so'm) shu bilan birga ko'p

²² Qashqadaryo viloyati Turizm va madaniy meros bosh boshqarmasi joriy arxiv fondi materiallari. 2021-yil iyul.

²³ Egamberdiyev F. T., Yoqubjonova H.Y. «Ekoturizmnинг iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish masalalari» «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 3, 2018. – 10 b.

qavatli va shaxsiy uylar qurish keng ko‘lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirish ko‘zga tutilgan.

Prezidentimizning 2020-yil 28-maydagi «Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha shoshilinch chora-tadbirlar to‘g‘risida²⁴»gi Farmoni bilan sohani bosqichma-bosqich tiklash bo‘yicha sezilarli darajada samarali choralar aniqlandi. Farmon asosida O‘zbekistonda yangi ichki sayohat yo‘nalishlarini yaratish, dam olish maskanlari sonini ko‘paytirish, mamlakatda salomatlik va sog‘lomlashtirish turizmini kengaytirish istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Harakatlar strategiyasining o‘nga yaqin bandi turizmni rivojlantirishga bag‘ishlangani, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 12-iyul kuni Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar hamda O‘zbekiston Ekologik harakati vakillari bilan videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan ma’ruzasida belgilangan ustuvor vazifalar zimmamizdagi mas’uliyatni yanada oshiradi. Masalan, xalqaro aeroportning yangi terminalini ishlab chiqish, turizm obyektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilish, ekoturizmni rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab loyihalarni amalga oshirish mumkin.

2023 yilda “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi Qashqadaryo viloyat mintaqaviy bo‘linmasi tizimida o‘z hisobiga va muhriga ega bo‘lgan bitta turistik kompleks, bitta mehmonxona, bitta restoran, 5 ta sayr va sayohatlar byurolari, “Xamroh” jamoa kollikтивlari mavjud edi. Bundan tashqari viloyatning barcha shahar va tumanlarida bo‘linma hisobidan faoliyat ko‘rsatayotgan vakillar tayinlangan bo‘lib, ularning soni 11 tani tashkil etdi.

2023 yil davomida bajarilgan ishlarga nisbatan mintaqaviy bo‘linma tomonidan axoliga sayr va sayohatlar xizmat ko‘rsatish ishlari bir qancha yaxshilandi. Amalga oshirilgan ishlar tahlil qilinganda xizmat ko‘rsatish 6369,9

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-maydagi PF-6002-sonli “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha shoshilinch chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 29.05.2020 y., 06/20/6002/0679-son.

ming so‘mni yoki belgilangan yillik xizmat ko‘rsatish rejasiga 191,7 foizga bajarilgan, yoki viloyatda katta yoshdagi har bir kishiga 6,5 so‘mdan to‘g‘ri keldi.

1.2.Qashqadaryo vohasida tarixiy madaniy meros obyektlarining turizmda tutgan o‘rni.

O‘zbekistonning janubiy hududlaridan biri hisoblangan Qashqadaryo vohasi ko‘p asrlik tarixi mobaynida islom qadriyatları va an’analari tizimining bir bo‘lagini tashkil etibgina qolmay, islom ilmlarining rivojiga hissa qo‘shgan olimu fuzalolarni etkazib bergen o‘lka hisoblangan. Mazkur hudud tarixiga doir ma’lumotlar qadimgi va o‘rta asr manbalarida tilga olinib, janubiy Turon zaminining markaziy shahri sifatida qadimdan Erqo‘rg‘on (janubiy So‘g‘d), Naxshab (Nasaf), Shulluktepa yodgorligi, Uzunqir, Nautaka, Baqtriya podsholigi manzillari shakllangan bo‘lib, Buyuk ipak yo‘li kesimida bu o‘lka nafaqat savdo va hunarmadchilik, balki ilm-fan, madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan. Shuningdek, hudud nasafiylar, keshiylar, kosoniylar qoldirgan moddiy-ma’navmo‘zidamujassamlashtirgan.²⁵ Hozirgi davrda viloyat hududidagi asosiy shaharlarni Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Koson, Yakkabog‘ tashkil etib, har bir hududning o‘z toponimikasi, tarixi, geografiyasi, afsona va diniy qarashlari bilan bog‘liq tarixiy va madaniy manzilgohlari bo‘lgan. Ular o‘zida alloma va avliyolarning shaxsi, nasabi, ular yashagan davr bilan bog‘liq tarix, islom olamida yoki umuman ilm-fan yo‘lida ulamolar qoldirgan merosni jamlab, xalqimiz milliy va ma’naviy qadriyatlariningmuhim elementi sifatida asrab kelinmoqda.²⁶

Ta’kidlash lozimki, mustaqillik yillarida “O‘zbekiston Respublikasi madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunning ijrosini ta’minalash maqsadida Qashqadaryo vohasida yo‘qolish arafasida turgan jami 1195 ta madaniy meros ob’ektlari aniqlanib, ulardan 175 tasi me’morchilik, 948 tasi arxeologiya ob’ektlari, 50 tasi haykaltaroshlik san’at asarlari ro‘yxatga olingan. Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni asosan Shahrisabz, Qarshi va Kitob

²⁵ Jumaev. B. O‘zbekistonda turizm sohasining shakillanishi va rivojlanishi (1991-2022 yillar). Renessans v paradigmə novatsiy obrazovaniya i texnologiy v XXI veke, (1).— B. 242—245

²⁶ Ahmedov E. O‘zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - Toshkent, 2002.—B.18

tumanlarida ko‘p uchraydi. Shahrisabz shahri UNESCO butun jahon ma’daniy merosligiga kiritilgan. Qashqadaryo viloyatida o‘zining uzoq o‘tmishiga ega ekanligi sabab tarixiy obidalar soni va ilmiy yangiligi turfa xillikni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni hududlar kesimida turlicha hisoblanadi.²⁷

Qarshi Shahar.Arxeologik yodgorliklar 28 ta, Arxitektura yodgorliklari 25 ta, monumental san’at yodgorliklari 6 ta, diqqatga sazovor joylar 1 ta.

Shahrisabz tumani.Arxeologik yodgorliklar 138 ta, Arxitektura yodgorliklari 22 ta, monumental san’at yodgorliklari 5 ta.

Yakkabog‘ tumani.Arxeologik yodgorliklar 195 ta, Arxitektura yodgorliklari 38 ta, monumental san’at yodgorliklari 2 ta, diqqatga sazovor joylar 2 ta.

Kitob tumani.Arxeologik yodgorliklar 281 ta, Arxitektura yodgorliklari 16 ta, monumental san’at yodgorliklari 3 ta, diqqatga sazovor joylar 5 ta.

G‘uzor tumani.Arxeologik yodgorliklar 94 ta, Arxitektura yodgorliklari 9 ta, monumental san’at yodgorliklari 3 ta, diqqatga sazovor joylar 3 ta.

Koson tumani.Arxeologik yodgorliklar 76 ta, Arxitektura yodgorliklari 11 ta, monumental san’at yodgorliklari 4 ta, diqqatga sazovor joylar 1 ta.

Chiroqchi tumani.Arxeologik yodgorliklar 58 ta, Arxitektura yodgorliklari 16 ta, monumental san’at yodgorliklari 3 ta, diqqatga sazovor joylar 2 ta.

Shahrisabz shahri.Arxeologik yodgorliklar 29 ta, Arxitektura yodgorliklari 28 ta, monumental san’at yodgorliklari 5 ta.²⁸

Qarshi tumani.Arxeologik yodgorliklar 58 ta, Arxitektura yodgorliklari 29 ta, monumental san’at yodgorliklari 28 ta, diqqatga sazovor joylar 5 ta.

Kasbi tumani.Arxeologik yodgorliklar 79 ta, Arxitektura yodgorliklari 11 ta, monumental san’at yodgorliklari 2 ta, diqqatga sazovor joylar 2 ta.

²⁷ Ahmedov M. O‘rta Osiyo me’morchiligi tarixi. -T.: “O‘zbekiston”, 1995. 58-bet

²⁸ Xo‘jayorov. O’.Betakror Qashqadaryoning turizm istiqbollari // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil

Nishon tumani.Arxeologik yodgorliklar 3 ta, Arxitektura yodgorliklari 1 ta, diqqatga sazovor joylar 3 ta.

Mirishkor tumani.Arxeologik yodgorliklar 9 ta, Arxitektura yodgorliklari 6 ta, monumental san'at yodgorliklari 2 ta, diqqatga sazovor joylar 1 ta.²⁹

Muborak tumani.Arxeologik yodgorliklar 2 ta, Arxitektura yodgorliklari 3 ta, monumental san'at yodgorliklari 2 ta, diqqatga sazovor joylar 1 ta.

Qashqadaryo O‘zbekistonidagi o‘zining go‘zal tabiat, tarixiy obidalari va madaniy merosi bilan mashhur hududdir. Bu yerda Shahrisabzning qadimiy xarobalari, Nurota tog‘larining tabiiy issiq buloqlari, Gulkam kanyonining manzarali sharsharalari, Kasbi shaharchasining an'anaviy hunarmandchiligi kabi sayyoohlar uchun keng ko‘lamli diqqatga sazovor joylar mavjud.Oqsaroy — Shahrisabzdagi me’moriy yodgorlik (1380—1404).Amir Temur qurdirgan. Shaharning shimoliy-sharqidagi bosh maydonda joylashgan. Bir zamonlar muhtasham, xashamatli bo‘lgan bu saroyning bizgacha yemirilib, haroba holga kelgan ulkan peshtog‘i, ikki chekkasidagi minorasi, saroy poydevorining bir qismigina saqlangan³⁰. Oqsaroyning hozirgi ko‘rinishi ham salobatli va go‘zaldir. Bu salobatlilik va go‘zallikka g‘ishtlarning yaxlit bo‘lib ko‘rinishini ta’minlash — old va shimoliy devor yuzasini sirkor parchinlar bilan bir tekisda ishlash tufayli erishilgan. Peshtoq ravog‘ining eni 22,5 m, balandligi 40 m, umumiy balandligi 50 m dan oshadi. Peshtoq minorasi ichidagi aylanma zina orqali yuqoriga chiqilgan.Ulug‘bek Mirzo otasi Shoxrux Mirzo nomidan qurdirgan. Peshtoq ravog‘ida ularning nomlari va qurilish vaqtibitilgan tarixiy yozuvlar saqlangan. Ko‘k gumbaz masjidi Dorut-tilovat ansambliga tarkibidagi asosiy jome masjid hisoblanadi.So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yangi ish o‘rnlari yaratish strategiyasi doirasida Qashqadaryo va mamlakatimizning boshqa hududlarida turizmni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

²⁹ Yarqulov A. Naxshabning arxeologik jihatdan o‘rganilishi tarixidan O‘zbekiston arxeologiyasi/ Arxeologiya Uzbekistana. 2011, 1-(2) son.— B. 135-141

³⁰ Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-soni qarori”. Lex.uz 4-oktabr 2019-yil

Oqsaroy. XIV asr. 1378-1379-yillarda Amir Temur Xorazmdagi barcha usta va hunarmandlarni Keshga keltirib, shaharda ulkan obodonlashtirshi ishlarini olib borgan va o‘z davri uchun tengi bo‘lmagan Oqsaroyni qurdirgan. Oqsaroy poydevoriga qo‘yilgan dastlabki g‘ishtlar oltin qumdan tayyorlangan. Saroy bezaklari orasiga Alloh taologa hamdu sanolar va Amir Temurga maqtov so‘zlari bitilgan³¹.

Hazrati Imom maqbarasi. XIV asr. 1384-yilda Amir Temur avliyo Muhammad Shayboniyning hokini keltirib Dorussiyodatga, o‘g‘li Jahongir qabri oldiga dafn ettirgan. Amir Temur ko‘rsatmasi bilan xorazmlik ustalar baland bino barpo etganlar. Muhammad Shayboniy musulmon olamida «Hazrati Imomi Bag‘dodiy «nomi bilan mashhur bo‘lgan. Majmuaga Amir Temur o‘zi uchun katta xilxona qurdirgan. Majmuuning ulkan ark va devorlari, o‘n olti qirrali asosga qurilgan gumbazlari qimmatbaho tosh va shishalardan ishlangan naqshinkor bezaklar bilan bezatilgan.

Dor-us Saodat me’moriy majmuasi. shaharning janubi-sharqiy qismida joylashgan, Amir Temur davrining eng mashhur tarixiy yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Undagi asosiy yodgorlik hazrat Sohibqironning to‘ng‘ich farzandi Jahongir mirzo maqbarasidir. Maqbara o‘z vaqtida juda chiroylı bo‘lgan, ammo vaqt o‘tgan sayin asta-sekin o‘zining oldingi qiyofasini yo‘qotgan. Holbuki, obidaning g‘arbiy fasadi butun yuzasi kufiy bannoniy xati bilan amalga oshirilgan mahobatli epigrafik kompozitsiyani o‘zida gavdalantirgan handasaviy naqshlar bilan bezatilgan edi. Ammo bitiklarning katta qismi qo‘porilib, yo‘qolib ketgan. Sharqiy fasadda ham sopol koshinlardan ishlangan qadama naqshlarning parchalarigina saqlanib qolgan, shu tariqa bitiklar ham yo‘qolib ketgan³².

Maqbaraning o‘ymakori eshidigagi bitiklar o‘zida muhim, tarixiy ma’lumotlarni jamlagan. U hijriy 1280, milodiy 1863–1864-yillarda mirdahyaklik saxovatli inson Tog‘oy buyurtmasiga muvofiq usta Bobojon tomonidan yasalib, o‘rnatilgan ekan. Eshikdagisi she’riy matnda “Ey, Muhammad Keshiy” ismi-sharifi

³¹ Ahmedov M. O‘rtta Osiyo me’morchiligi tarixi.– T. O‘zbekiston., 1995.– 58-bet.

³² O‘scha asar. 59-bet.

diqqatingizni tortadi. Chunki milodiy 786-yilda Keshda tug‘ilgan Muhammad Keshiy buyuk imom, zabardast muhaddis, Keshda birinchi hadis maktabiga asos solgan zot sifatida bizga yaxshi tanish. Biroq, matnni tuzgan kishi Jahongir Mirzoni ana shu imom nomi bilan o‘zaro bog‘lagan afsonago‘ylik an’analariga ergashgan ko‘rinadi.

Shu majmua tarkibidagi, aytishlaricha, Sohibqiron o‘zi uchun qurdirgan maqbara turli mazmundagi bitiklarga boyligi bilan e’tiborga molikdir. Akademik Yahyo G‘ulomov ular bilan 1933-yildayoq tanishib chiqqan edi. 1942-yilda daxmadagi bitiklarni mashhur olimlar M. YE. Masson va G. A. Pugachenkova tadqiq qilishdi.

Dor-ut Tilovat memorial majmuasi. 1370-1371-yillar buyuk taqvodor arbob, So‘filik asoschisi, Amir Tarag‘ayning murabbiysi va Baxovuddin Naqshbandiyning o‘qituvchisi bo‘lmish Shamsiddin Kulolning o‘limidan so‘ng barpo qilingan. Uning qabri arbob ko‘milishi bilanoq, ko‘plab izdoshlari uchun ziyoratxonaga aylangan. Shayx Kulol qabri oldida avval Dor-ut Tilovat madrasasi joylashgan. Amir To‘rag‘ayning qolgan qismi madrasa xonalaridan biriga olib o‘tilgan. Amir Temurning hukmronligi davrida Kulolning maqbarasi marmardan ishlangan toshtaxta bilan qoplangan. Keiynroq, Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davrida Shamsiddin Kulol qabri tepasiga soddagina gumbazli maqbara qurilgan. Ko‘k Gumbaz masjidi maqbara qarshisiga 1435-yil qurilgan. Portaldagi yozuv Ulug‘bek tomonidan uning otasi Shohrux buyrug‘i bilan qurilgan. Bu masjid ham Shahrisabzdagi jome’ masjidi hisoblanadi³³.

Gumbazi Sayyidon maqbarasi. XV asr. 1437-1438-yillarda bunyod etilgan Gumbazi Sayyidon maqbarasi o‘ziga xos maqbaralar majmuasini tashkil etadi. Gumbazlariga naqshinkor bezaklar tushirilgan. Undagi yozuvlarga asoslanib Mirzo Ulug‘bek avlodlariga oid, degan taxminlar qilinadi. XV - XVII asrlarda maqbara

³³ Abdullaev S.I., Usmanova R. Qashqadaryo landshaftlarini tasnif qilishning ayrim masalalari // Janubiy O‘zbekiston tabiat manbalaridan oqilona foydalanish masalalari. -T, 1997. -B.22-27

ichiga Termiz sayyidlari ismlari ko‘rsatilgan bir necha qabrtoshlar olib kirilgan. Bu keyinchalik maqbaraning Gumbazi Sayyidon, deb atalishiga olib kelgan. Binoning asosi katta bir xonaqoh, gumbaz hamda unga ulanib ketgan mayda xonalardan iborat.

Hazrati Malik Ajdar masjidi. Shahrisabzliklar tilida “Malik Ajdar”ga aylanib ketgan “Malik Ashtar” masjidining nomi arabcha “Moliki ushtur” so‘zidan kelib chiqqanligi aytiladi. Buning ma’nosи “Tuyador” bo‘lib, ya’ni masjid, savdo karvonlarida qatnaydigan ko‘plab tuyalarga ega bo‘lgan boy tomonidan qurdirligan. Chamasi, masjid qurilmasdan avval bu hududda VIII – X asrlarda ziyorat qilinadigan qadimiy dafina-qabr joylashgan bo‘lishi mumkin.

Hozirda “Malik Ashtar” masjidi hovli atrofi bo‘ylab joylashgan masjid va hujralardan tashkil topgan inshootlar majmuasidan iborat. Ularning eng ahamiyatlisi xonaqo bo‘lib, gumbazi yaqin-atrofdagi uylarning tomlaridan balandroq. Me’moriy yechimi mahalla masjidlariga xos. Masjid binosi XIX asr oxiriga kelib to‘la shakllangan³⁴.

Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi. XIV asr. Shayx Shamsiddin Kulol (yoki Kulol Faxuriy) Amir Temur va uning otasi Amir Tarag‘ayning ustozи, o‘z davrida ulkan hurmat va e’tiborga ega bo‘lgan ulamolardan. Mil. 1370-yilda Shayx dafn etilgan joyga Amir Temur maqbara qurdirgan. 1373-yilda olamdan o‘tgan Amir Tarag‘ay ham o‘zining vasiyatiga binoan ustozи Shamsiddin Kulol qabrining oyoq tomoniga dafn etildi. Maqbara to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda qurilgan bo‘lib, kirish qismiga ulkan gumbaz ishlangan, dastlabki qo‘yilgan ikkita katta ustun va asosiy poydevor bugungi kungacha saqlangan, devor va gumbazlar Amir Temur davriga xos o‘ymakor g‘ishtdan bezak va jilva bilan bezatilgan.

Hazrati Bashir ziyoratgohi. Hazrati Sulton Said Axmad Bashir (1368 – 1464). «Xazrati Bashir tarixi» kitobida Amir Temur Ko‘rogoniyning piri Said Barakaning ukalari Said Ne’matulloxonning karomatlari, duolari tufayli olamga keladi, deyiladi. Hazrati Bashirning otalari Xo‘ja Xasan 90 yoshda, onalari Bibi

³⁴ https://consumer.gov.uz/wp-content/uploads/2021/05/qashqadaryo-1468_reklamadan-holi-hududlar

Maloxat 80 yoshda bo‘lishlariga qaramay, farzandlari bo‘lmagan, deb ko‘rsatiladi. Bola tug‘ilgach ota – onasi unga Said Axmad deb nom qo‘yishadi. Onalari Bibi Malokatdan sut kelmagach, yosh Said Axmad sutsiz voyaga yetadi. Said Axmaddin keyin onalari yana Said Ali va Xoji Axmad ismli ikki nafar farzand ko‘radi. Hazrati Bashir Hazrati Muxammad Salollohu alayxu vasallamning hijratlaridan keyin 768-yildan so‘ng olamdan o‘tadilar va Bashir qishlog‘idagi Niyoztepada dafn etiladilar. U kishining qoldirgan meroslari va tariqatlari islom olamida katta himmatga hamda o‘z o‘rniga ega bo‘lib qoldi. Ushbu ziyoratgoh mustakilliqdan keyin qurilishlar qilinib, obod maskanga aylantirildi. Bu yerga har yili minglab kishilar kelib, Hazrati Bashirning Niyoztepadagi qabrlarini ziyorat kelishadi³⁵.

Abu Ubayd ibn al-Jarroh yodgorlik majmuasi. Ubayda al-Jarroh mashhur lashkarboshi, siyosatchi, Muhammad (s.a.v) payg‘ambarning hamrohi va tabibi edi. Afsonaga ko‘ra, u o‘q bilan yaralangan payg‘ambar (s.a.v) davolay olgan. Majmua XV asrda qurilgan va yaqinda ta’mirlangan. Maqbara hududida laylak shakli tushirilgan minora, nihoyatda toza va shaffof hovuz, dafn etilgan joylar, qadimiy topilma ashylari, eski chinorni ko‘rish mumkin. Majmuaga kiraverishda gulzorli keng xiyobon joylashgan.

Qarshi ko‘prigi. Boy tarixga ega qadimiy ko‘prik. Uning bir necha nomi bor: Amir Temur ko‘prigi, Shayboniylar ko‘prigi, Qashqadaryo ko‘prigi, Nikolaevskiy ko‘prigi. Inshoot 1583-yilda forscha uslubda qurilgan. Qurilish Abdullaxon II tashabbusi bilan boshlangan bo‘lib, u uchun shaharda nafaqat piyodalar, balki savdo karvonlari uchun ham qulay o‘tish joyini yaratish muhim edi. O‘sha paytda Qarshi savdogarlar uchun muhim to‘xtash joyi bo‘lgan. O‘shandan beri ko‘prik shaharning ramzi bo‘lib kelgan. Uning uzunligi 122 metr, kengligi 8 metr, suv ustida balandligi 5 metr va 10 ta tutashtiruvchi kamarlardan tashkil topgan.

Odina madrasasi va masjidi. Bu shaharda ilk bor ayollar uchun madrasa va masjid qurilgan. Majmua XVI asrda vayron bo‘lgan Kebek xon saroyi o‘rnida qurilgan. Madrasada ayollarga ilm-fan va diniy ta’limotlar o‘rgatilgan. Odamlar

³⁵ <https://meros.uz/uzc/object/hazrati-bashir-ziyoratgohi>

namoz o‘qib, farzandlari, yaqinlari uchun Allohga shukronalik keltirish uchun masjidga kelishgan. Bunday diniy majmua O‘rta Osiyoda yagona bo‘lib, hech qasrda o‘xhashi yo‘q edi. Ayni paytda masjidda shayboniylar sulolasining boy tarixidan hikoya qiluvchi muzey faoliyat ko‘rsatmoqda, ularning hukmdorlari va xonlari islom tarixiga salmoqli hissa qo‘shgan³⁶.

Ko‘k-Gumbaz masjidi. Qarshi jome masjidi XVI asr oxirida qurilgan. Bino o‘zining ulug‘vorligi va go‘zalligi bilan hayratda qoldiradi, o‘sha davr odamlari bunday go‘zallikni qanday qilib qurishga muvaffaq bo‘lganligining o‘zi juda ham hayratlanarli.

Xo‘ja Abdulaziz madrasasi. Arxitektura yodgorligi 1909-yilda, Buxoro amiri Sayid Abdulahadxon davrida qurilgan. XX asr boshlarida madrasa mashhur ta’lim muassasasi bo‘lib, u yerga Buxoro amirligining barcha hududlaridan talabalar kelgan. 1975-2007-yillar mobaynida Madrasada Qashqadaryo o‘lkashunoslik muzeyi faoliyat yuritgan³⁷.

Husam ota majmuasi. XIV, XVI, XIX asrlar. Hazrat Husam ota asli Makkadan Movarounnahrga hijrat qilgan din arbobi bo‘lib, Tedyon va Pedyon qishloqlariga asos solgan hamda yerli aholi orasida Islom dinini targ‘ib qilgan. U 1090-1091-yillarda olamdan o‘tgan. Husam ota va avlodlari dafn etilgan qabr ustiga uning muridlari tomonidan maqbara va majmua barpo etilgan. Maqbarada mo‘g‘ul xonlaridan Oqatoy va Masratoy ismlari ko‘rsatilgan qabr toshlarining mavjudligi bu yerga XIII - XIV asrlarda mo‘g‘ullar ham dafn etilganini ko‘rsatadi.

Langar ota majmuasi³⁸. XV-XVI asrlar. Langar ota me’moriy majmuasi hozirgi Qamashi tumanining Langar qishlog‘ida XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida juda katta obro‘-e’tibor va salohiyatga ega bo‘lgan Kattalangar shayxlari tomonidan qurilgan. Maqbarada «Langar ota» nomi bilan tanilgan Shayx Muhammad Sodiq (1460-1545), otasi shayx Abul Hasan va avlodlari dafn etilganlar.

³⁶ <https://virtualltour.uz/cgi-sys/suspendedpage.cgi>

³⁷ Madaniyat vazirligining joriy arxiv fondi materiallari.

³⁸ <https://meros.uz/uzc/object/langar-ota>

Maqbarada Amir Temur avlodidan bo‘lgan ismi ko‘rsatilmagan bir shahzodaning ham qabr toshi mavjud

Birinchi bob buyicha xulosa:

Xulosa qilib aytganda Mamlakatimizda, va ayniksa turizmni rivojlantirish uchun yo‘nalishlar va tarixiy madaniy meros ob’ektlari ko‘lami juda keng, ularning moddiy va ma’naviy hayotimizda tutgan o‘rni, u yerda xizmat qilayotgan shaxslar faoliyatini o‘rganish, sayexlarga shart-sharoit yaratib berish, ziyyoratgohlarga mahalliy aholi va xorijiy turistlarni jalg qilish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Ziyyorat va turizm ularning ko‘lami, shakllari, boshqarish usullari va meros ob’ektlari va ularning atrofiga ta’sirini aniqlash uchun tegishli tadqiqotlarni Qashqadaryo vohasi ham mamlakatimiz turizm salohiyatini dunyoga namoyon etishdek sharaflı ishda o‘zining munosib va muhim o‘ringa ega.shundan kelib chiqadigan bo‘lsak viloyatda mazkur sohani rivojlantirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilishi tabiiy va maqsadga muvofiq.Zero,mazkur sohaning istiqbolli yuksak ekani,turizmning taraqqiy etishi viloyat iqtisodiyotning yuksalishida,aholi farovonligi oshishida muhim ahamiyatga egaligini soha mutasaddilari chuqr anglatildi

2017-2023yillar oralig’ida turizm sohasi bo‘yicha bir muncha yangiliklar va o‘zgarishlar bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin.Ushbu 10yil Ichida 20ga yaqin o‘zgarish sodir bo’ldi va qonun hujjatlar qabul qilindi.Bu davrda sayyoohlar bilan xizmat ko‘rsatish yaxshilandi.

II BOB. QASHQADARYODA TURIZMNI ASOSIY YO'NALISHLARINI .

2.1. Madaniy turizmni o'ziga xos xususiyatlari:

Madaniy turizm tarixiy, madaniy yoki geografik diqqatga sazovor joylarga tashriflarni o‘z ichiga olishi bilan boshqa turizm yo’nalishidan ajralib turadi.Madaniy turizm turizmnинг eng ommaviy turi hisoblanadi.Bunday sayohatlarning asosiy maqsadi turistik diqqatga sazovor joylar tarix, arxitektura, san’at yodgorliklari; tabiiy va etnik xususiyatlar; xalqning tarixiy va zamonaviy hayoti va etnografik madaniyatni xalq hunarmandchiligi bilan tanishishdan iboratdir.

Qashqadaryo viloyatida Respublikadagi jami tarixiy obidalarning 17,76% joylashgan. Qashqadaryo viloyatda bugungi kunda 1 ming 468 madaniy meros obyekti ro‘yxatga olingan bo‘lib, ularning 1 ming 189 tasi arxeologiya, 208 tasi arxitektura, 43 ta monumental yodgorliklar, 34 tasi diqqatga sazovor joylar hisoblanadi. “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora tadbirdari” to‘g‘risidagi 2021-yil 9-fevral sanasidagi PF-6165 son Farmoning 9-bandiga muvofiq Qashqadaryo viloyatida turizmni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshiliash maqsadida Qashqadaryo viloyati hokimligi byudjetdan tashqari 200 mldr so‘m mablag‘ ajratilgan.Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni asosan Shahrisabz, Qarshi va Kitob tumanlarida ko‘p uchraydi. Shahrisabz shahri UNESCO butun jahon ma’daniy merosligiga kiritilgan.

Qashqadaryo viloyatida o‘zining uzoq o‘tmishiga ega ekanligi sabab tarixiy obidalar soni va ilmiy yangiligi turfa xillikni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatida tarixiy obidalar soni hududlar kesimida turlicha hisoblanadi³⁹.Bugungi kunda viloyatda 48 ta mehmonxona, 194 ta mehmon uylari, 16 ta hostellar turistik qatlam uchun xizmat ko‘rsatmoqda. Hududda 17 ta yirik turistik ob'ektlar mavjud bo‘lib, yil davomida 700 mingdan ortiq turistlarni o‘zida qabul qiladi.Ma’lumot uchun, Qashqadaryodagi “Varganza” qishlog‘i viloyatdagi birinchi agroturizm qishlog‘i hisoblanadi. Bu yerda 2019-yilda birinchi marta “Anor” xalqaro agroturizm festivali

³⁹ Mirziyoyev SH.M.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi//Yoshlar ovozi. 2018 йил, 29 декабрь. № 148 (16305).

bo‘lib o‘tgan va qishloqqa “agroturizm qishlog‘i” maqomi berilgan. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanidagi “Bashir” qishlog‘i turizm qishlog‘iga aylantirilmoqda. “Hazrati Bashir” ziyoratgohi aynan shu qishloqda joylashgan. Qayd etish lozimki, 2022-yilda “Hazrati Bashir” ziyoratgohiga 400 000 nafardan ortiq mahalliy va xorijiy turist tashrif buyurgan. Ushbu maskan nafaqat betakror tabiatni, balki o‘ziga xos tarixi bilan ham e’tibor jalg qilib keladi⁴⁰.

Madaniy turizmni nafaqat turizm turlaridan biri, balki shahar hududini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq holda shaharning madaniy sohasini rivojlantirishning eksport strategiyasi sifatida ham ko‘rib chiqsa bo‘ladi deb ham aytishimiz mumkin. "Madaniy turizm" atamasi nisbatan yaqinda – XX asrning 80-yillarida paydo bo‘lgan va "meros turizmi" deb nomlangan hodisadan kelib chiqqan bo‘lib, bu hodisa ko‘p sabablarga ko‘ra XX asrning 70-yillaridan boshlab butun dunyoda juda mashhur bo‘lib kelgan. O‘sandan beri biz madaniy merosni tarixiy, harbiy, adabiy, badiiy deb talqin qildik va "madaniy turizm" atamasi barcha diqqatga sazovor joylar bilan tanishishni o‘z ichiga olgan bo‘lsada, u ko‘proq badiiy meros (san’at, arxitektura) bilan bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Bugungi kunda turizm iqtisodiyotning eng yirik yuqori daromad keltiradigan va eng dinamik tarmoqlaridan biridir, shuning uchun ko‘p yillar davomida turizm mahalliy iqtisodiyotni rag‘batlantiradigan, mamlakat aholisining turmush darajasi va sifati va turmush darajasiga ta’sir qiluvchi tarmoq sifatida qaralib kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-avgustdaggi PF-5781-son "O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi⁴¹ Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari tomonidan turistik xizmatlar sifatini yaxshilash, turizm sohasidagi kadrlar malakasini oshirish, milliy turistik mahsulotlarni chet elda faol targ‘ib qilish va respublikaga kelayotgan xorijiy sayyoohlarni sonini ko‘paytirish bo‘yicha ko‘riladigan chora-tadbirlar

⁴⁰ Mirziyoev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 martdagagi PQ-4247-sonli “Qo‘riqlanadigan tabrige”.

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 1 martdagagi 112-sonli «Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini yanada qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2021 y., 09/21/112/0171-soni

belgilangan. Bugungi kunda butun dunyoda xalqaro sayyoqlikning jadal rivojlanishi kuzatilmoxda, shuning uchun mezbon mamlakatlarning madaniy va tabiiy resurslaridan foydalanish ko'paymoqda. Dunyoning turli burchaklaridagi xalqlarga nisbatan sayyoohlarning tabiiy qiziqishlari eng kuchli sayyoqlik motivlaridan birini tashkil qiladi⁴². Madaniy va ma'rifiy maqsadlarga ega bo'lgan turizm soni ortib bormoqda. Jamiyatni rivojlantirishda madaniyatni yangi tushunish va dunyoda madaniy xilma-xillikni saqlab qolish zarurligini anglash madaniy turizmni mintaqaviy rivojlanish manbai sifatida, shuningdek, ijtimoiy va madaniy sohaga, ekologiya, tashqi iqtisodiy faoliyat va xalqaro munosabatlarga ta'sirini kengaytiradi. Buning sababi shundaki, zamonaviy dunyoda turizm asosan iqtisodiy hodisadan ijtimoiy va madaniy tartib fenomeniga aylanadi.

Gastronomik turizm-bu mahalliy oziq-ovqat va ichimliklarni o'rganish va iste'mol qilishni o'z ichiga olgan turizmning rivojlanayotgan shaklidir. So'nggi yillarda gastronomik turizmga qiziqish ortib bormoqda, sayohatchilar sayohat chog`ida noyob oshpazlik tajribalarini izlaydilar. Ushbu tendentsiya o`z-o`zidan mahalliy jamoalarga o'zlarining mahalliy taomlari va ichimliklarini targ'ib qilish va turizm bilan bog'liq iqtisodiy va madaniy almashinuvdan foyda olish uchun imkoniyatlar yaratadi⁴³.

Gastronom so'zining kelib chiqishi quydagicha talqin etiladi (yunonchadan "Gastros" - oshqozon, "nomos" qonun, ta'limot,) degan ma'noni anglatib, bugungi kunda bu atama ma'nosi faqat uning etimologik kelib chiqishi bilan bog'lanadi. Shundan kelib chiqib, gastronomik turizmni fan sifatida oladigan bo'lsak, "Oziq-ovqat do'konii", ovqatlanish va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadigan fan deb tarif berishimiz mumkin⁴⁴. Gastronomik turizm atamasi ham soha mutaxassislari

⁴² Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Yoshlar ovozi. 2018 yil, 29 dekabr. № 148 (16305).

⁴³ Umumiy ovqatlanish tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarining kasbiy darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yildagi 289-soni (Кабинету Министров Республики Узбекистан "О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности организаций общественного питания и повышению квалификации работников")

⁴⁴ O'ktam Xo'jayorov. Betakror Qashqadaryoning turizm istiqbollari // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.

tomonidan bir qancha tariflar bilan keltirilgan: – bu milliy taomlar, mahsulotlar, ichimliklar bilan tanishish uchun turli mamlakatlarga sayohat qilish bu mamlakatning milliy oshxonasi, oshpazlik xususiyatlari an'analari, ishlab chiqarish va tayyorlash xususiyatlari ovqatlar va idishlar, shuningdek, kasbiy bilimlarni o'qitish va takomillashtirish uchun sayohat qilish –bu asosiy maqsadi mamlakat yoki mintaqaning milliy taomlari bilan tanishish, mahsulotlar xususiyatlari, texnologiya, pishirish, shuningdek, oshpazlik bilim darajasini oshirish bo'lgan faoliyatdir– bu hududlar, dunyo bo'y lab sayohat qilish va mahalliy taomlar bilan tanishish, oshpazlik urf–odatlari, shuningdek, o'ziga xos ta'mini ko'rish uchun tashrib buyurish⁴⁵. Yuqoridagi ta'riflardan kelib chiqib, gastronomik turizm bu biror bir shaxs yoki jamoaning milliy taomlar va ichimliklarni tatib ko'rib, undan rohatlanish yoki shifo topish uchun hamda ushbu mahsulotni ishlab chiqarish usullari, oshpazlik sirlari, pishirish texnologiyalarini o'zlashtirish shuningdek, har bir hududga xos bo'lgan taom yoki ichimliklarni farqlash va ularni taqqoslash maqsadida bir hududdan ikkinchi hududga yoki bir davlatdan ikkinchi davlatga tashrif buyurish degan umumiy tarifni berishimiz mumkin bo'ladi. Shuningdek, gastronomik turizmning asosiy maqsadlaridan biri bu– u yoki bu mamlakat oshxonasining xususiyatlari bilan tanishishdan iborat bo'lib, bunda bir nechta tansiq taomlarni tatib ko'rish yoxud ko'plab taomlarni iste'mol qilish bilan birga, balki asrlar davomida saqlanib kelingan mahalliy retseptlarni va urf–odatlarni o'zida jamlagan milliy⁴⁶

Gastronomik turizm, shuningdek, oziq-ovqat turizmi deb ham ataladi, bu yerda asosiy maqsad ma'lum bir manzilning mahalliy oshxonasi va ovqatlanish madaniyatini o'rganishdir. Turizmning bu turi odatda an'anaviy taomlarni tatib ko'rish, mahalliy taomlardan namuna olish, oziq-ovqat bozorlari va festivallarga tashrif buyurish, oziq ovqat tarixi va an'analarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Gastronomik turizm, odatda ikki turga bo'linadi⁴⁷

⁴⁵ https://uz.wikipedia.org/wiki/Gastronomik_turizm

⁴⁶ <https://www.gastrogatherings.com/what-is-gastro-tourism.html>

⁴⁷ https://uz.wikipedia.org/wiki/Gastronomik_turizm

1.Agroturizm, dala (qishloq) gastronomik turizmi; Sayohat qilinayotgan davlatning, ekologik toza mahsulotlari (meva va sabzavotlar, poliz mahsulotlari, uzumchilik) ni, hosilini yig'ish yoki qadoqlashni o'z ko'zi bilan ko'rish va mahsulotlarni ta'tib ko'rish tushiniladi.

2.Shahar gastronomik turizmi, mahalliy mahsulotlarni qayta ishlaydigan va ishlab chiqaradigan korxonalar, milliy taomlar tayyorlaydigan ovqatlanish shaxobchalarida, oziq-ovqat do'konlariga va boshqa ob'yektlarga, tashrif buyurib, ularni o'rganish va ta'tib ko'rishni o'z ichiga oladi.

Gastronomik turizm turli shakllarda bo'lishi mumkin, yaxshi ovqatlanish tajribasidan tortib ko'cha taomlari sayohatlarigacha va shaxslar ham, guruhlar ham zavqlanishlari mumkin. Shuningdek, u madaniy turizm, sarguzasht turizmi yoki ekoturizm kabi boshqa turizm turlari bilan birlashtirilishi mumkin⁴⁸.

So'nggi yillarda gastronomik turizm tobora ommalashib bormoqda, chunki odamlar sayohat paytida haqiqiy va noyob oziq-ovqat tajribalarini izlashmoqda. Shuningdek, u ko'plab yo'nalishlar uchun muhim iqtisodiy manbara aylandi, chunki tashrif buyuruvchilar yuqori sifatli oziq-ovqat tajribalari va mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari uchun katta mablag` to'lashga tayyor.

Prezidentimizning 2019-yil 5-yanvardagi O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi 5611-tonli farmonida diyorimiz hududlarida turizmning istiqbolli tunlari, shu jumladan gastronomik turizm salohiyatini hisobga olgan holda yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Bizning yurtimizning gastronomik sayohati ko'plab xorijlik sayyoohlarimiz tomonidan doim yuqori baholanib kelinadi⁴⁹. Shu bilan birga mamlakatimiz "National geographic"tanlovida eng yaxshi gastronomik yo'nalish g'olibi sifatida e'tirof qilingan. Bundan tashqari O'zbekiston Butunjahon Turizm tashkiloti tashhabbusi bilan tashkil etilgan gastronomik sayohatlarda faol qatnashmoqda. Bularning barchasi O'zbekistonda gastronomik turizm rivojlanishiga

⁴⁸ Катело Я.Д. "Маркетинговая стратегия развития гастрономического туризма" Донецк – 2019. – Б 184 (Katelo Ya.D. "Marketing strategy for the development of gastronomic tourism")

⁴⁹ Qosimova R.A. Turizm va uni o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). - T.: «Aloqachi», 2008 - bet 7.(Косимова Р.А. Туризм и методы его обучения (учебник). - Т.: «Коммуникатор»

katta hissa qo'shganidan darak beradi. O'zbek oshxonalarida ko'proq qo'y go'shtidan foydalanish, mol va ot go'shtiga qaraganda kamroq qo'llaniladi. Cho'chqa go'shtidan Islom dini an'analariga binoan taomlarda qo'llanilmaydi. Bizning oshxonalarimizda eng mashhur taomlardan palov, manti, do'lma, hasip, tandir nondir. Shu bilan birga respublikamizning har bir viloyati o'zining milliy taomlari bilan mashhurdır. Rossiyaning "Tusr Stat" tahliliy agentligining ma'lumotlariga ko'ra Davlatimiz gastronomik turizm yo'nalishida MDH va yaqin chet el mamlakatlari reytingida kuchli 5 likdan joy olgan. Bu davlatlar Gruziya, Ozarbayjon, Armaniston, Qozoqiston va O'zbekistondir. Xususan 2018-yilda National Geographic jurnali o'tkazgan "National geographic traveler" mukofotida gastronomik turizm naminatsiyasi bo'yicha O'zbekiston birinchi o'rinni egallagan⁵⁰.

Shuningdek Qashqadaryoda ham turistlarni jalb etuvchi milliy taomlar bor:

O'zbekiston bo'y lab sayohat qilgayotganingizda Qarshini o'z gastronomik xaritangizdan hech qanday holatda chiqarib tashlamang. Bu yerda eng ajoyib taomlardan biri, qadimgi zamonlardan bizgacha etib kelgan retseptlar asosida tayyorlanadigan zira bilan pishirilgan qo'y go'shti – tandir go'sht hisoblanadi. Sizni befarq qoldirmaydigan mahalliy oshxonaning yana bir taomi – somsadir! Tandirdan yangi uzilgan somsaning sehrli hidini so'z ta'riflashga ojiz. Somsa odatda pomidorli achchiq sous bilan dasturxonga tortiladi. Bu yerda tayyorlangan rang-barang taomlar orasida Qashqadaryo palovi, tog' saryog'li patir, chiyal yaxnasi, chuchvara va no'xat sho'rvani alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Shuningdek, qatiqdan tayyorlangan betakror ichimlik chalop ham shu yerda tayyorlanadi⁵¹.

G'uzor tandir kabob kabobning bir turi. Qadimiy tansiq taomlardan biri. Tayyorlash usuli: qo'y va mol go'shtining yog'sizroq qismidan qalinligi 2—3 sm, enibo'yi 5—10 sm li 100—150 g li bo'laklar kesilib 0,5% li namakobga 30 min. botirib qo'yiladi. Betiga un, murch va tuyilgan zira aralashmasidan tayyorlangan

⁵⁰ Ibragimov N.S., O'zbekiston turizmini mustaqil uyushgan sayyoohlар segmentiga moslashtirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2018 yil. (Ибрагимов Н.С. Адаптация туризма Узбекистана к сегменту самостоятельно организованных туристов. Научный электронный журнал "Экономика и инновационные технологии")

⁵¹ Qosimova R.A. Turizm va uni o'qitish metodikasi (o'quv qo'llanma). - T.: «Aloqachi», 2008 - bet 7.(Косимова Р.А. Туризм и методы его обучения (учебник). - Т.: «Коммуникатор»

urvoq sepiladi va tandirga yopib, qizarguncha pishiriladi. Go'sht qizargach, cho'g'ni tandirning o'rtasiga to'plab, betiga kul tortiladi va tandirning qopqog'i yopilib, 10—15 min. dimlanadi⁵². Ayniqsa turistlar sevib iste'mol qiladilar. Bu G'uzor va Chiroqchi tumanlarida pishiriladi. Shashlik yoki kabob cho'g'da pishirib (kuydirib) tayyorlanadigan go'shtli taom. An'anaviy shashlik tindiriligan va o'rtacha kattalikda to'g'ralgan go'shtdan tayyorlanadi⁵³.

Shashlikni Qashqadaryoning hamma hududlarida yaxshi tayyorlanadi.

O'zbek palovi- ya'ni o'sh nomi bilan ham tanilgan, O'zbekistonning milliy taomi bo'lgan guruchli va mazali palovdir. Bu butun Markaziy Osiyo bo'y lab mashhur taom bo'lib, uni qoniqarli va mazali ta'mi bilan ko'pchilik yoqtiradi.

Omuxta yog': qo'yni charvi (ichak va pochka yoni) yog'lari eritiladi. 100 gramm erigan qo'y yog'iga 50 gr qizdirilgan paxta yog'i qo'shiladi. Undan o'rtacha yumshoqlikda sho'r suvga oddiy xamir qilinadi va biroz tindirib qo'yiladi. Qovoq, kartoshka, piyoz va dumba yog'i kubik qilib to'g'raladi. Tuzi rostlanadi. Tingan xamir yupqa yoyilib, omuxta yog' surtiladi. Xamir rulet holiga keltirilib o'raladi, uni muzlatkichga 1 soatga qo'yiladi. Xamir muzlatkichdan olinib, bo'laklarga bo'linadi. Va bo'lakchalar cheti jo'valanib, dumaloq shakl beriladi. Bunda dumaloq shakl o'rtasini jo'valamaslikka harakat qilish lozim. So'ngra qiyma solinib, somsa tugiladi. Bu somsani turistlar sevib iste'mol qiladilar.

Qashqadaryo viloyatida turizm va rekreatsiya sohasini jadal rivojlantirish, uning xalqaro turistik imidjini yuksaltirish, mintaqalarning turistik-rekreatsiya salohiyatini kuchaytirish va turistik xizmatlarlarni diversifikasiya qilish, yangi turistik yo'nalishlari va majmualarini yaratish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada, o'zining tabiat, demografik va ishlab chiqarish salohiyati,

⁵² "Umumiy ovqatlanish tashkilotlarining faoliyatini yanada takomillashtirish va xodimlarining kasbiy darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yildagi 289-sonli (Кабинету Министров Республики Узбекистан "О мерах по дальнейшему совершенствованию деятельности организаций общественного питания и повышению квалификации работников")

⁵³ Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Yoshlar ovozi. 2018 yil, 29 dekabr. № 148 (16305).

milliy qadriyatlari hamda hunarmandchiligi bilan yaxshi tanilgan Qashqadaryo viloyatining turizm rekreatsiya salohiyatini tadqiq qilish va baholash, hududlarning turistik infratuzilma tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish davlat siyosati darajasidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi⁵⁴. Keyingi yillarda respublikamiz tog‘li hududlarda rekreatsiya va turizmni istiqbolli tarmoqlarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “mamlakatimizning betakror tabiat, milliy qo‘riqxonalar, tog‘li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud” deb ta’kidlagan edilar. Ya’ni, istiqbolli rekreatsiya-turizm sohasida turizm faoliyati sub’ektlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash, mintaqalarning turistik salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, dam olish va turizm uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, shuningdek, turizm xizmatlari ko‘rsatish sohasida yangi ish o‘rinlarini tashkil etish hamda aholining bandligi va farovonligini oshirish bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi⁵⁵.

Respublikamiz hududlari, ayniqsa tog‘ va tog‘oldi hududlari ekoturizm resurslariga boy davlatlar qatorida turadi. Respublikamiz O‘rta Osiyo davlatlarining o‘zaro aloqalarini geografik jihatdan bog‘lovchi hudud sifatida qaraladi. Shu sababli respublikamizda ichki va tashqi turizmni rivojlatirishning juda katta imkoniyatlari mavjud. Mana shunday hududlardan biri Qashqadaryo havzasining yuqori tog‘li qismi hisoblanadi. Qashqadaryo havzasi geomorfologik jihatdan tog‘ va tekisliklardan iborat bo‘lib, landshaftlarning zonal va vertikal tabaqlananishni, o‘ziga xos issiqlik rejimi va namlanish sharoitlariga, relefiga va boshqa omillarga bog‘liq⁵⁶.

⁵⁴ Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi 846-sonli qarori”. Lex.uz (4-oktabr 2019-yil

⁵⁵ Abdullaev S.I., Usmanova R. Qashqadaryo landshaftlarini tasnif qilishning ayrim masalalari // Janubiy O‘zbekiston tabiat manbalaridan oqilona foydalanish masalalari. -T., 1997. –B.22-27

⁵⁶ Badalov O‘.B. O‘rta Zarafshon havzasini rekreatsiya-turistik resurslari, ulardan foydalanishning geografik asoslari va istiqbollari // Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilm. dara. olish. uchun tayyor. Diss. avtoreferati. -Samarqand, 2020. 46

Bugungi kunda Jahon mamlakatlarining ko‘pchiligidagi turizm mamlakat iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib ulgurgani beziz emas. Bunday mamlakatlarda iqtisodiy faol aholining 10-15% i turizm sohasida ish bilan banddir⁵⁷. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida ham turizm salohiyatini yanada oshirishda o‘zini noyob tarixiy-madaniy merosidan samarali foydalanishga, tarixiy arxitektura ansamblari va yodgorliklari holatini yaxshilashga, sayyoohlар uchun mehmonxonalar va xizmat ko‘rsatish ob’ektlari qurishga, diqqatga sazovor madaniy-tarixiy yodgorliklar bo‘yicha zamonaviy sayyoohlilik yo‘nalishlarini shakllantirish va joriy etishga, mintaqaning tabiiy, rekreatsiya salohiyatidan samarali foydalanish, transport infratuzilmasini rivojlantirish, ko‘rsatilayotgan xaridlar xizmati sifatini oshirish, shu asosida yangi ish o‘rnlari tashkil etish va viloyat aholisining daromadlarini o‘stirishga alohida e’tiborni qaratdi⁵⁸.

Natijada turistik loyihalarni birgalikda moliyalashtirish uchun xorijiy investitsiyalarni, donor mamlakatlar, xalqaro tashkilotlarning kreditlari va grantlarini jalb etish ishlari amalga oshirila boshlandi. Masalan, 2023 yildan boshlab Kitob tumanidagi “Bashir” qishlog‘i turizm qishlog‘iga aylantirilib, sayyoohlар sonini 700 mingga yetkazish rejalashtirilgan. Qayd etilishicha, “Hazrati Bashir” qishlog‘i Qashqadaryo daryosi bo‘yida joylashgan. Hozirda qishloqda 20 dan ziyod oilaviy mehmon uyi faoliyat yuritmoqda. Qishloqda ziyorat turizmi, ekoturizm va agroturizm rivojlangan. “Hazrati Bashir” ziyoratgohi ham joylashgan. Ziyoratgoh nomi shu joyda yashab o‘tgan avliyo Hazrati Sulton Said Ahmad Bashir (1368-1464) nomi bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga ayrim turistik hududlarda, ya’ni, Kitob tumanidagi «Qaynar» va «Varganza» qishloqlari, Yakkabog‘ tumanida «Tatar» va Mirishkor tumani «Jeynov» turizm qishlog‘lari zamonaviy talablarga javob beradigan turistik loyihalalar asosida ta’mirlash ishlari amalga oshirilib kelinmoqda⁵⁹.

⁵⁷Egamberdiev F. T., Yoqubjonova H.Yo. «Ekoturizmning iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish masalalari» «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 3, 2018 yil, 10 b.

⁵⁸Jumaev X.X., Bozorova S. Qashqadaryo viloyatida davolash-sog‘lomlashtirish turizmini rivojlantirish istibollari. O‘zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari Respublika ilmiy - amaliy konferensiysi materiallari. Qarshi, 2021. -B. 113-116.

⁵⁹Jumaev. B. O‘zbekistonda turizm sohasining shakillanishi va rivojlanishi (1991-2022 yillarda). Renessans v paradigm novatsiy obrazovaniya i texnologiy v XXI veke, (1), 242—245.

Bundan tashqari, Sohibqiron Amir Temur tug‘ilgan Yakkabog‘ tumani Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘i sayyohlarni jalb etish maqsadida obodonlashtirildi, viloyatdagi tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarda ziyoratchi turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi «Halol turizm markazi» faoliyati yo‘lga qo‘yish ishlari olib borilib, ziyoratgohlar hududida targ‘ibot - tashviqot forumlari, diniy musobaqalar va ziyorat festivallarini o‘tkazishda amaliy ishlar olib borilmoqda⁶⁰.

O‘tgan vaqt mobaynida Qarshi shahridagi Abu Ubayda al-Jarrah majmuasi, o‘zbek hammomi me’moriy yodgorligi, Odina majmuasi, Sardoba, Qilichboy, Abdulazizzon madrasalari, Chiroqchi va Kitob tumanlaridagi Katta Langar ota masjidi va maqbarasi, Xo‘ja ilmkoni xonaqoh majmuasi qaytadan kapital ta’mirdan chiqarildi. Qarshi va Kasbi tumanlaridagi Xoja Shamsiddin Xalvoniy maqbarasi, Imam Muyin an-Nasafiy yodgorligi, Sulton mir Haydar majmuasida ta’mirlash-tiklash ishlari davom etmoqda. Shuni alohida qayd etish lozimki, viloyatdagi o‘ttizta tarixiy-madaniy ob’ektlar qayta tiklanadi va ushbu joylar kelajakda sayyohlarni qiziqarili maskanlariga aylandi⁶¹.

Mirishkor tumanidagi Achinko‘l suv havzasi atrofida dam olish maskanida baliq ovlash, qayiqda suzish xizmatlari, o‘tovli oromgohlar qurish imkoniyati katta. Bugungi kunda Achinko‘l suv havzasi qirg‘og‘ida “Biologik buyurtmaxona” barpo etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda⁶². Bundan tashqari, Kitob davlat geologik hamda Hisor qo‘riqxonalariga tashriflar bo‘yicha dasturlar tayyorlash, Mingchinor qishlog‘i hududida tog‘ chang‘i bazasi va osma yo‘l bunyod etish rejalashtirilgan.

2.2. Qashqadaryo vohasida turizm rivojlantirishning asosiy muammolari

Turizm bugungi kunda dunyo mamlakatlari xizmat ko‘rsatish sohasining eng yirik yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Uning iqtisodiyotning boshqa sohalaridan ustun jihatlari shu bilan ifodalanadiki, turli taraqqiyot bosqichida

⁶⁰Yarashev Q., Yusupov B. Tabiiy muhofaza etiladigan hududlarda ekoturizimni rivojlantirish masalalari (Hisor davlat qo‘riqxonasi misolida). O‘zMU xabarlari (3/2/1-tabiiy fanlar). -Toshkent, 2022. -B.323-327.

⁶¹ Egamberdiev F. T., Yoqubjonova H.Yo. «Ekoturizmning iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish masalalari» «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron jurnali. № 3, 2018 yil, –10 b.

⁶² Yarashev Q., Yusupov B. Tabiiy muhofaza etiladigan hududlarda ekoturizimni rivojlantirish masalalari (Hisor davlat qo‘riqxonasi misolida). O‘zMU xabarlari (3/2/1-tabiiy fanlar). -Toshkent, 2022. – B.323-327.

bo’lgan barcha mamlakatlarda ham rivojlantirish imkoniyatlarining mavjudligidir. Buni nafaqat, tarixiy joylar, balki, geografik joylashuv, iqlim va ob-havo sharoiti, ba’zi hollarda, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy yoki ekologik muammoli, hatto, ekstremal sharoitdagi hudud hamda xilma-xil uslublarda qurilgan inshootlar ham sayohat ob’yektiga aylangan holda byudjetga daromad keltirishida ko’rishimiz mumkin. Hozirgi kunda turizmning, nafaqat, tarixiy yoki an'anaviy, balki, yangidan-yangi turlari, shakl hamda ko’rinishlari vujudga kelmoqdaki, bu yangi tendensiyalar mazkur sohani valyuta kirib keluvchi manba sifatidagina emas, mintaqaviy rivojlanishning asosiy faktorlaridan biri deb qabul qilinishiga olib kelmoqda. Shu sababli, keyingi vaqtida dunyo mamlakatlari qisqa muddatlarda katta daromad keltiruvchi moliyaviy sohalar bilan bir qatorda turizmga ham davlat darajasida katta e’tibor qaratmoqda⁶³.

O’zbekistonda ham hozirda Yevropa Ittifoqida amal qilayotgan “satellit” tizimini yo’lga qo’yish ishlarini boshlash natijasida bir necha yillardan so’ng tizimni to’liq ishga tushirish hamda hozirgi kunda yurtimizda sohaning muammoli jihatlaridan biri bo’lib hisoblangan ichki sayyohlarni hisobga olish tizimini tartibga solish uchun qulay sharoit paydo bo’ladi. Sayyoohlар oqimining ko’payishiga to’siqinlik qiladigan dastlabki faktorlar sifatida mutaxassislar aviachiptalar narxining yuqoriligi, mavjud talabning mahalliy va xalqaro avialiniyalarning charter reyslari bilan qoplanmayotgani, O’zbekistonda viza tizimi va mehmonlarni ro’yxatga olish jarayonining murakkabligini keltirib o’tishardi⁶⁴.

Jahon sayyohlik tashkiloti ma’lumotiga ko’ra, dunyo bo’ylab sayyohlarning qariyb 60 foizi eng qimmat ekaniga qaramasdan, havo transportidan foydalanadi. Biz aytmoqchi bo’lgan sayyohlik maqsadida mamlakatimizga keladigan aksariyat mehmonlar aynan shu havo yo’llaridan foydalanishni ma’qul ko’rishadi. Chunki yaqin xorijdan tashrif buyuradiganlarning asosiy qismi qarindoshlarini yo’qlash

⁶³ Elektron manba: <https://kun.uz/news/2020/06/25/ozbekistonda-ichki-turizm-negaommashmagan-asosiy-sababmablagmi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2020%2F06%2F25%2Fozbekistonda-ichki-turizmnega-ommashmagan-asosiy-sabab-mablagmi>.

⁶⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-aprelda qabul qilingan “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g’risida”gi PQ-232-sonli qarori.

maqsadida kelishadi. Davlatimiz rahbarining 2016 yil 2 dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoniga muvofiq, sayyohlik mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmog‘i sifatida belgilandi. Prezidentning 2022 yil 30 apreidagi qarori bilan 2022- yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Xususan joriy yil fevral oyining o‘zida Davlat rahbarining shu sohaga doir 4 ta muhim hujjati qabul qilindi.

Ushbu hujjatlar bilan sohada yig‘ilib qolgan muammolarni hal yetish, turizm salohiyatini oshirish bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Bugungi kunda “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi tizimiga zamonaviy marketing joriy yetish, dunyo aeroportlarida mavjud bo‘lgan maxsus moslamalar, mobil aloqa vositalari yordamida aviachipta sotib olish imkoniyatlari yaratish ustida ish olib borilmoqda. Amalga oshirilgan ishlar samarasi o‘laroq, joriy yilning iyun oyida Islom Karimov nomidagi «Toshkent» xalqaro aeroportida xalqaro yo‘nalishlar yo‘lovchilari uchun uchib kelish terminali ochildi. U soatiga 1200 ta yo‘lovchini o‘tkazish imkoniyatiga ega. Terminalda yangi muhandislik-texnologik uskunalar o‘rnatildi. «Yashil» va «qizil» yo‘laklar, uzunligi 60 m. bo‘lgan 4 ta qo‘l yuklarini qabul qilish lentasi, 24 ta pasport nazorati punkti, viza ta’minoti punkti, ikkita Duty Free do‘koni va ikkita kafe faoliyat ko‘rsatadi. Qo‘l yuklari lentasi ustiga ekranlar o‘rnatilgan bo‘lib, u orqali yo‘lovchilar yuklari qayerdan chiqishini bilishlari mumkin. Pasport nazoratidan o‘tish muddati qisqardi. Endilikda O‘zbekistonga yetib kelgan mehmonlar va fuqarolar aeroportdagi rasmiyatchiliklardan 20-30 daqiqada o‘tishlari mumkin bo‘ladi. Aeroportdagi kirkashlar sayyohlar tabini xira qilmasin.

Sayyoh aeroport hududini tark etgan zahoti ming afsuski, ularni ismi yozilgan taxtachani ushlab qarshi oladigan ochiq chehrali kuzatuvchilar emas, “uchar” kirakashlarimiz kutib oladi⁶⁵.

⁶⁵Jumaev. B. O‘zbekistonda turizm sohasining shakillanishi va rivojlanishi (1991-2022 yillar). Renessans v paradigm novatsiy obrazovaniya i texnologiy v XXI veke, (1), 242.- B.14

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida joriy yil 22 fevral kuni o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ta’kidlaganidek, “Turist sayohat qilishi, ichki ishlar idoralarida sarson bo‘lmasligi kerak. Agar biz turizm hisobiga ish o‘rinlari ochamiz, desak turistga shart qo‘yish yemas, balki sharoit yaratishimiz zarur”. Masalaning "echim"lari ham aynan shu yig‘ilishda keltirib o‘tildi. Ro‘yxatga olish tizimini to‘liq yelektron shaklga o‘tkazish, bu masalani ichki ishlar idoralari, mehmonxonalar, davolash muassasalari, xususiy uylar va shu kabi joylashtiruvchi jismoniy va yuridik shaxslarning majburiyati sifatida belgilash, turistlarni bunday tashvishdan xoli qilish yuzasidan berilgan ko‘rsatmalar to‘liq bajarilsa, bu turizm sohasi rivoji yo‘lida qo‘yilgan ulkan qadamlardan biri bo‘ladi.

2017-2023yil 10 fevralidan boshlab Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Turkiya va Isoildan kelayotgan turistlarga mamlakatimizda 30 kungacha vizasiz bo‘lishga ruxsat berildi. Bundan tashqari, 39 mamlakat fuqarolariga viza berish tartibi soddalashtirildi. 2018 yil 1 iyuldan elektron vizalar joriy qilindi⁶⁶.

Qashqadaryo vohasida 4-5 yulduzli mehmonxonalarni aytmasa, xususiy uylar negizida tashkil qilingan kichik otel va xostellarda xizmat ko‘rsatish sifati malakali kadrlar yetishmasligi hisobidan oqsaydi.

Ekskursiyalar tashkil etish va gid xizmatidan foydalanishdagi vaziyat ham qoniqarli emas. Aksariyat ekskursiya yo‘nalishi oldindan belgilangan bo‘lib, bunda bir necha kishidan iborat guruhlarga xizmat ko‘rsatish uchun gid biriktiriladi. Ammo sayohat uchun individual yo‘nalish yo kichik guruh uchun alohida gid so‘ralsa, yana shu tanqislikka duch kelinadi⁶⁷.

Sayyohni mamlakat bilan tanishtirish va uning fikrini shakllantirishda gidlar asosiy bo‘g‘imdir. Kelgan mehmonning mamlakat va uning xalqi haqida ijobiy yoki salbiy xulosaga kelishi bevosita shu gidlarning kasb mahorati va shaxsiy xislatlariga

⁶⁶ Egamberdiev F. T., Yoqubjonova H.Yo. «Ekoturizmning iqtisodiy mohiyati va uni takomillashtirish masalalari» «Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar» ilmiy elektron журнали. № 3, 2018 yil, 10 b.

⁶⁷ <https://kun.uz/news/2020/06/25/ozbekistonda-ichki-turizm-negaommalashmagan-asosiy-sababmablagmi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2020%2F06%2F25%2Fozbekistonda-ichki-turizm-nega-ommalashmagan-asosiy-sabab-mablagmi>

bog‘liq. Bizda turkompaniyalar tomonidan oldindan biriktirilgan, xorijiy sayyoohlar bilan ishslashga moslashgan gidlar yetarli emas. Shu sabab, biror tarixiy obidaga tashrif buyurganda o‘sha obida ma’muriyati tomonidan taklif etadigan gidlar xizmati bilan cheklanishga to‘g‘ri keladi. Ularning aksariyati o‘sha obida kabi so‘nib, qarib borayotgandek taassurot uyg‘otadi. Talaffuzdagi monotonlik, aytilaverib charchagan hikoyani yoqar-yoqmay takrorlashidan sayyoohlarning qiziqib jonlangani emas, zerikib esnayotganini kuzatasiz xolos.

Qashqadaryo viloyatiga tashrif buyurgan sayyooh borki, bizning palovimiz, kabobu somsalarimiz ta’rifini eshitib kelgan bo‘ladi. Haqiqatda milliy taomlarimiz maqtanishga arzigulik. Lekin tarixiy shaharlarimizda hali-hanuz qahvaxona, restoran va oshxonalarimiz ikki toifaga bo‘linadi. Birinchisida tez, arzon va shirin ovqatlanib darrov ketish kerak. Chunki sharoiti oyoq uzatib o‘tiradigan emas. Ikkinchisida bemalol, oyoq uzatib, chiroyli dizayn va yuqori servisga mahliyo bo‘lib o‘tirasnu, mazasi va hajmining narxiga nomutanosibligiga barmog‘ingni tishlab qolaverasan.

2.3.Qashqadaryo vohasida turizm sohasi bo‘yicha olib borilgan islohatlar

2017 yildan bugunga qadar O‘zbekistonda prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida turizm sohasida yirik islohotlar olib borilmoqda.

Viza rejimi soddallashtirildi. Ayni paytda 93 xorijiy davlat fuqarolari uchun vizasiz kirish, 56 davlat uchun elektron kirish vizasi, 47 davlat uchun besh kunlik tranzit vizasiz kirish, shuningdek, 76 davlat uchun turistik viza berishning yengillashtirilgan tartibi belgilandi. 55 yoshga to‘lgan va turizm maqsadida 30 kundan ortiq bo‘lмаган muddatga O‘zbekistonga keluvchi Xitoy, AQSh va Viyetnam fuqarolari uchun vizasiz kirish rejimi qilindi⁶⁸.

Bundan tashqari, «Vatandosh», «Student visa», «Academic visa», «Medical visa» va «Pilgrim visa» kabi yangi kirish viza turlari belgilandi.

⁶⁸ O‘ktam Xo‘jayorov. Betakror Qashqadaryoning turizm istiqbollari // O‘zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. 1/2014-yil

Qashqadaryo viloyatida ham turizm sohasi bo'yicha ko'plab islohotlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldag'i "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3514-sonli hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13-14 dekabr kunlari Qashqadaryo viloyatida tashriflari vaqtida Shahrishabz shahrini festivallar shahriga aylantirish bo'yicha berilgan topshiriqlari ijrosini ta'minlash maqsadida Shahrishabz shahri va unga yaqin hududlarda bo'lib o'tadigan festivallar ro'yxati shakllantirildi va yil mobaynida turli festival, seminar, konferensiyalar tashkil etildi.

2017yil 8-9 fevral kunlari "**I INFO-TUR**" Shahrishabz shahrida Oq saroy majmuasida o'tkazildi. Tadbirda 40 dan ortiq turistik tashkilotlar, 20 dan ortiq ommaviy axborot vositalari vakillari, investorlar va blogerlar ishtirok etishdi⁶⁹. Tavfsilotlar ommaviy axborot vositalari orqali 30 ga yaqin maqolalarda chop etildi, 10 dan oshiq ko'rsatuv, eshittirish va chiqishlarda namoyish etildi. Matbuot xizmati tomonidan har bir ma'lumot rus, ingliz, arab, italiyan va nemis tillarida tarjima qilinib internet orqali butun dunyoga yoritib berildi va xozirgi kunga qadar ushbu ma'lumotlarni milliondan ortiq internet foydalanuvchilari kuzatdilar. Ushbu Info Turda Respublikamizning 40 ga yaqin yetakchi turfirmalari hamda 20 ga yaqin blogerlar, (OAV) matbuot xizmatlari ishtirok etib hamkorlikda ishslash yo'lgan qo'yildi⁷⁰ 2017-2023yil 16-17 mart kunlari "**I Xalqaro ko'pkari o'yinlari**" Kitob tumani Qaynar qishlog'ida tog' yon bag'irlarida o'tkazildi.

